



Ta'lim Sifatini Oshirishda Ilg'Or Pedagogik Tajribalarning Ahamiyati

Rustamova Manzura Ne'matjanovna

Namdu psixologiya faoliyat turlari yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim-tarbiyaga yangicha yondoshish tendensiyalari, ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tub islohotlarning asosiy yo'nalishlari, pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati, pedagogik faoliyatda qo'llaniladigan ilg'or innovatsion texnologiyalar xususida so'z yuritilgan. Ta'limda ilg'or pedagogik tajribalarni qo'llash orqali ta'lim sifatini yanada takomillashtirish zaruriyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Ijodkorlik manbai, innovatsion texnologiya, pedagogik faoliyat, ta'lim tendensiyalari, tadqiqotchilik ko'nikmasi.

Buyuk kelajak taraqqiyoti tomon odimlab borayotgan mamlakatimizda kadrlar masalasi, yosh avlod tarbiyasi birinchi o'rindagi muhim masalalar qatorida bo'lib qolmoqda. Zeroki, O'zbekiston ravnaqi, kelajagi shu yoshlar, ya'ni zamonaviy kadrlar qo'lida ekan, jamiki e'tibor ularning hur fikrli bo'lishi, jahon 77 ta'lim standartlariga mos kela oladigan ta'lim olishi buyuk kelajak uchun qo'yilayotgan mustahkam poydevordir. Buning uchun esa, avvalo, ta'lim sifatini jahon andozalariga mos ravishda oshirish lozimdir. Zamonaviy ta'lim olishning o'zi har bir shaxs zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Zeroki, ta'lim-tarbiya jarayoni shaxsni har tomonlama kamol toptirish, yuksak g'oyali, milliy g'ururli, chuqur ma'lumotli, ma'naviy va jismoniy yetuk qilib yetishtirish maqsadini ko'zda tutadi va o'z harakatlarini shu nuqtai nazardan yo'lga qo'yadi. Istiqlolning dastlabki qadamlaridanoq, yosh avlodni tarbiyalash, hayotda o'z o'rnini topishi, demokratik davlat qurish vazifalariga bo'ysundirilishi lozim ekanligini uqtirib o'tilgandi. Oradan yillar o'tib, zamonaviy innovatsion ta'limni turli usullarda amalga oshirish imkoniyatlari kundan-kunga kengayib bormoqda. Bularning barida butun mas'uliyat faqatgina o'qituvchi zimmasigagina yuklatilmasdan ta'lim oluvchidan ham o'z-o'zini boshqarish talab etilmoqda.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar va tajribalarni joriy etish bo'limi faoliyati tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 19 iyundagi 164-sonli "Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblarining yangilangan klassifikatorini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, Xalq ta'limi vazirligining 2015 yil 16 fevraldagi 34-sonli "Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institut (markaz)larining ustavini tasdiklash to'g'risida"gi va 2015 yil 24 iyundagi 191-sonli "Xalq ta'limi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to'g'risida"gi buyruqlariga muvofiq belgilangan.¹

Ta'lim-tarbiyaga yangicha yondoshish, ta'lim sifatini oshirish, mavjud ta'lim dasturlarini zamonaviy talablarga muvofiq isloh qilish va yosh avlod tarbiyasi muammolarini oqilona tarzda hal qilish imkoniyati yaratilgan bo'lib, bu ulug' niyatlarni amalga oshirishda, avvalo, ta'lim



tizimini maktab yoshigacha bo'lgan bola tarbiyasidan boshlab, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, yuksak aql-zakovat mohiyatini shakllantirish, buning uchun zamonaviy moddiytexnik va axborot bazasini yaratishgacha bo'lgan barcha sohalarni isloh etish kerak.²

Ta'lim tizimini isloh etish va uning sifatini oshirish vazifalari muvaffaqiyatli hal etilsa, ijtimoiy - siyosiy sohalar sekin o'zgaradi, odamlar ongida demokratik qadriyatlar qaror topadi, inson jamiyatdagi o'rnini ongli ravishda o'zi belgilaydi. Bugungi kunda hayotimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning tub mohiyati bevosita ta'lim jarayoniga taqaladi. Ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tub islohotlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

- ta'lim mazmuni tizimini isloh qilish;
- ta'lim - tarbiya tizimini isloh qilish;
- ta'limning bozor iqtisodiyotiga asoslangan mexanizmini isloh qilish;
- ota-ona, o'qituvchi va o'quvchining ta'lim jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarini shakllantirish;
- yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishdan iborat [3].

Ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish, chuqurlashtirish, bu mazmunga nafaqat bilim, ko'nikma, malaka, balki umumisoniy madaniyatni tashkil etuvchi ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak - atrofga munosabatlarni ham kiritish g'oyasi juda muhimdir. Ilg'or pedagogik, ijtimoiy tajribalar pedagogik mahoratni shakllantirishda muhim omildir. Yangi pedagogik texnologiyalarning asosiy tomoni maktab darsliklarini qaytadan yuksak darajada, yuqori saviyada tuzish lozimligidir. Darsliklar tuzish ko'p yillik ilmiy, madaniy, estetik, ma'naviy tajribalarga tayangan holda amalga oshirilmog'i kerak. Ta'lim jarayonidagi pedagogik faoliyat o'z mehnatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Ma'lumki, inson oldida biror muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi. O'qituvchilik faoliyati ana shunday xususiyatga ega. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va xarakteri bilan aniq. Pedagogik faoliyat kishi shaxsi, uning dunyoqarashi, e'tiqodi, ongi, hulq-atvoriga bo'ysungan son-sanoqsiz pedagogik masalalarini yechish jarayonidir. O'qituvchi faoliyatidagi ijodkorlik ana shu masalalarni yechish usullarida, ularni hal qila olish yo'llarini qidirib topa bilishida ifodalanadi.

Pedagogik ijodkorlik manbai - bu ilg'or pedagogik tajribadir. Ilg'or pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda, biz o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondoshishi, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasida yangi, zamonaviy, samarali, eng ma'qul yo'l va vositalarni qidirib topishini tushunamiz.³ Ilg'or pedagogik tajriba o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan ish shakli va usullari, uslub va vositalar hamda innovatsion texnologiyalardir. Ilg'or pedagogik tajriba o'rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish, o'quv-tarbiya jarayoniga yaxshi, sifatli o'zgarishlar kiritish, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish, yangi ko'rinishdagi o'quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo'ladi. Ijodiy ishlaydigan o'qituvchi faqatgina muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalash; ilg'or o'qituvchilar ish tajribalarini tahlil qila olish tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur. Ilg'or o'qituvchi hamma vaqt pedagogika sohasidagi yangiliklarni bilishga intiladi, boshqa o'qituvchilarning tajribalaridan foydalanishga hamda o'z shaxsiy tajribalarini umumlashtirishga harakat qiladi.

² Tolipov O', Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. 2005. 25-29-betlar

³ O'zbekiston Respublikasi Tasviriy oyina ijodiy uyushmasi "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun". T. 2017. 8-11 betlar



Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishi, o'z fanining muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yuritish olishi, fan yutuqlarini o'quvchilarga yetkaza olishi, va nihoyat, o'quvchilarni ham ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o'rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchi, avvalo, tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. O'qituvchi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi davomida olimlarning tajribalarini to'playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U fan xulosalaridan o'zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida hozirgi zamon o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan juda muhim fazilatlarni egallaydi. Ilg'or o'qituvchilar o'qitish metodlarini tanlashga alohida e'tibor beradilar.

O'quvchilarning frontal, differensiyalashgan va yakka tartibdagi faoliyatlarining umumiy jihatlari ko'proq bo'lsa-da, ularni tashkil etish o'qituvchidan o'ziga xos ijodiy yondoshishni talab qiladi. Agar butun sinf, guruh va alohida shaxsga nisbatan bir xil metod bilan ta'sir ko'rsatilar ekan, unda tarbiya ham, ijodiy yondoshish ham barbod bo'ladi. O'qituvchi pedagogik mahoratini shakllantirishda ilg'or pedagogik tajribalarga tayanishi yaxshi natijalarga olib keladi.⁴

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, ta'limda ilg'or pedagogik tajribalarni qo'llash orqali ta'lim sifatini yanada takomillashtirish zarur. Bu orqali biz yoshlarimizning quyidagi xususiyatlarini rivojlantirgan bo'lamiz: - bilim, ko'nilma va malakalarini shakllantirish; - yoshlarni jahon arenalariga intilishlariga zamin yaratish hamda ularning yetuk kadr sifatidagi raqobatbardoshligini oshirish; 80 - ularda ijodkorlik hamda tanqidiy fikrlay olish qobiliyatlarini shakllantirish. Yana shuni aytish lozimki, bugungi kunda oldimizda turgan asosiy hamda buyuk vazifamiz har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagimurojaatnomasidan.
2. Tolipov O', Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. 2005. 25-29-betlar
3. O'zbekiston Respublikasi Tasviriy oyina ijodiy uyushmasi "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun". T. 2017. 8-11 betlar
4. Jo'rayev R. Zunnunov A. Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalash- tirish omillari. - T.: "Sharq". 2005 y.

⁴ Jo'rayev R. Zunnunov A. Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalash- tirish omillari. -T.: "Sharq". 2005 y.